



TALABALAR HUQUQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA NAZARIYA VA AMALIYOT (4+2 TAMOIYILI MISOLIDA)

Pirnazarov G'ulom Nurboboyevich

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa

doktori (PhD), dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14910129>

O'qitish metodlarini kitobdan yoki o'qituvchining so'zlaridan o'rganish mumkin, biroq, ushbu metodlardan foydalanish ko'nikmalari faqatgina ko'pga cho'ziladigan, uzoq davom etadigan amaliyot orqaligina o'zlashtiriladi.

K.D.Ushinskiy

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" gi PF-134-sonli Farmonining 7-bandida hamda 2022-yil 21- iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ – 289- Qarorining 2-bandida pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2 - 4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari «4+2» tartibida, shu jumladan, darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishini ta'minlash vazifasi yuklatilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida Prezident Farmoni va Qarorida ko'rsatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. Pedagog tayyorlaydigan ta'lim yo'nalishlari malaka talablari "4+2" ga moslashtirilgan yangidan ishlab chiqildi.
2. Pedagog tayyorlaydigan ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalari yangi talabalar asosida ishlab chiqildi.
3. Pedagog tayyorlaydigan ta'lim yo'nalishlari uchun "4+2" malakaviy amaliyoti dasturlari ishlab chiqildi va mos ta'lim muassasalari bilan shartnomalar tuzildi.

Amaliyotlar bakalavr ta'lim jarayonining majburiy qismi bo'lib, talabalarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Bakalavrlar tayyorlashda ko'plab amaliyot turlari o'tkaziladi. Shulardan biri pedagogik amaliyotdir. Pedagogik amaliyot bo'lajak mutaxassisni kasbiy tayyorlash tizimining asosiy va muhim bo'g'inidir. Pedagogik amaliyot talabaning nazariy ta'limi va bo'lajak mustaqil faoliyatini bog'laydigan hamda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi jarayon bo'lib, dastlabki tajriba maktabi hisoblanadi. Pedagogik amaliyot - bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda o'quv pedagogik jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Pedagogik amaliyot namunaviy va ishchi o'quv rejasiga mos ravishda amalga oshiriladi. Pedagogik amaliyotning mazmuni amaliyot turiga qarab, kafedrada ishlab chiqilgan dasturiga mos bo'ladi. Pedagogik amaliyot o'quv mashg'ulotlaridan ajralgan holda tashkil etiladi. Pedagogik amaliyotning maqsadi - bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish, pedagogik faoliyat mas'uliyatini his etish va o'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish, shuningdek, tajribali o'qituvchilarning ish faoliyatini o'rganishdan iboratdir.

Bo'lajak o'qituvchilar nazariy fanlarni chuqur o'rganishi barobarida amaliyotda qo'llay olsagina natijaga erishiladi. Shuning uhun ushbu 4+2 dasturining yo'lga qo'yilishi talabalarga keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga bo'lajak kasbida yetuk mutaxassis bo'lib yetishadi. Malakali va raqobatbardosh kadrlarga talab oshgan davrda amaliy ko'nikmasi yuqori nazariy bilimi chuqur bo'lgan talabalar yetishib chiqishi ayni muddao bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalari va ulardagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat-monitoringini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani



shakllantirish pedagog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonidagi muhim vazifalardan sanaladi.

Bo'lajak pedagogik amaliyoti mobaynida ularga kerak bo'ladigan asosiy narsa bu - kasbiy bilimdir. Kasbiy bilim - aniq mehnat faoliyati doirasida bajariladigan ishlar uchun zarur bo'lgan axborotlar va o'zlashtirilgan nazariy ma'lumotlar birlashmasidir. Kasbiy ko'nikma va malakalar - amaliy faoliyat jarayonida paydo bo'ladigan, shaxsning o'zlashtirilgan kasbiy bilimlarini anglangan ish harakatlariga aylanishidagi avtomatlashgan usuldur.

Talabalarni pedagogik amaliyotning quyidagi vazifalarini qamrab oladi:

- talabalarni umumiy o'rta maxsus ta'lim muassasasining tarkibiy tuzilmasi, faoliyat mazmuni, muassasa pedagogik jamoasining ish tajribasi bilan yaqindan tanishtirish;
- talabalar tomonidan ixtisoslik fanlari bo'yicha yaratilgan o'quv-metodik majmualarning o'rganilishini ta'minlash, ixtisoslik fani, dolzarb pedagogik mavzularda darsdan tashqari tadbirlarni tashkillashtirish va o'tkazish metodikasi bilan tanishishlari uchun zarur sharoit yaratish, amaliyotchi-talabalarga ta'lim muassasasi me'yoriy hujjatlari, ish tajribasini o'rganishda yordam ko'rsatish;
- amaliyotchi-talabalarda pedagogik refleksiya va pedagogik jarayonlarni tanqidiy anglash malakalarini rivojlantirish, oliy ta'lim muassasasida o'zlashtirilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishga doir bilimlarni amalda qo'llash, yanada takomillashtirish ko'nikmalarini hosil qilish, amaliyotchi-talabalarda mas'ul shaxslar rahbarligida pedagogik vaziyatlarni mustaqil baholash va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, talabalarda psixologik-pedagogik tadqiqotlarni olib borish ko'nikmalarini shakllantirishga xizma qiladi.

Talabalar Pedagogik amaliyot davrida o'zlarini yuqori ma'naviy-axloqiy sifatlar, fuqarolik tuyg'usi, ijtimoiy faollik va kasbiy faoliyatga nisbatan qiziqishni namoyon etadigan boshlovchi mutaxassis sifatida namoyon eta olishlari lozim. Bundan tashqari amaliyotchi-talabalar muayyan huquq va majburiyatlariga ega. Majburiyatlari o'z navbatida ikkiga (Tashkiliy va pedagogik faoliyatdagi majburiyat)lariga bo'linadi.

Talabalarining (4+2) amaliyotda tashkiliy faoliyat bo'yicha majburiyatlari:

- pedagogik amaliyot mohiyati va mazkur jarayonda bajariladigan vazifalardan xabardor bo'lish;
- o'z faoliyatini ta'lim muassasasining Ustavi asosida tashkil etish va ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalariga bo'ysunish va muassasada texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;
- ta'lim muassasasi ma'muriyati, pedagogik amaliyot rahbarlarining talabalarini bajarish, sababsiz pedagogik amaliyotdan chetlashmaslik, chetlashish zaruriyati yuzaga kelsa, bu haqida guruh rahbarini xabardor qilish, uning yoki amaliyot uchun mas'ul shaxslardan birining ruxsatini olish;
- amaliyotni tashkil etishda qiyinchiliklar yuzaga kelsa, u holda bu haqida guruh rahbari bilan maslahatlashish, ularni bartaraf etish yo'lida amaliy harakatni olib borish.

Talabalarining pedagogik amaliyotda faoliyat bo'yicha majburiyatlari:

- ilg'or ta'lim va tarbiya texnologiyasi asoslaridan yetarli darajada xabardor bo'lish va pedagogik faoliyatni olib borishda ta'limning yangi turlari, interfaol metodlardan samarali foydalanish;
- amaliyot davrida turli (pedagogika, psixologiya, o'qitish metodikasi kabi) fanlar o'rtasida integratsiyani yuzaga keltirish va o'quvchilar shaxsiga doir psixologik-pedagogik ma'lumotlar banki bilan yaqindan tanishish, ta'lim oluvchilarni erkin, mustaqil shaxs sifatida rivojlantirish;
- o'quv muassasasi tomonidan tashkil etiladigan o'quv va tarbiyaviy ishlarning mavjud ahvolini o'rganish, - pedagogik ta'lim muammolariga doir ilmiy-metodik jurnallar, nashr mahsulotlari, matbuot materiallari bilan doimiy tanishib borishdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak 4+2 tizimining yo'lga qo'yilishi afzalligi talabalarining mehnat bozorida raqobatbardosh kadr bo'lishlarini ta'minlaydi. Nazariyani chuqur o'rganish asnosida o'rgangan bilimlarini amaliyotda ularni qo'llay olishi ham o'rni muhimdir. Buni zamon va texnologiyaning shiddat bilan rivojlanib borayotgani isbotlab turibdi. Pedagogik amaliyot talabalarda tanlangan mutaxassislikning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda intellekt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat bo'lib, mazkur vazifani bajarish asosida ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi ta'minlanadi. Bunda kasbiy tayyorgarlikning asosiy



mezonlari sifatida bo'lajak mutaxassisning faoliyatga amaliy tayyorgarligi va ixtisoslik doirasidagi bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish, kasbiy faoliyat talablariga moslashish darajasi belgilanadi. Bundan tashqari amaliyot natijasida kasbiy ko'nikmalari bilan birga sohaga doir huquqiy kompetensiyalari ham rivojlanib borishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016. –14-b.
2. Громова Н. С., Обоскалов Д. А., Меньшикова О. А. Правовая и финансовая грамотность молодежи: проблемы и пути совершенствования // Теория и практика мировой науки. – 2022. – № 8. – С. 10-12.
3. Колоткина О.А. Особенности выбора методик проведения практических занятий по теории государства и права со студентами очно-заочной формы обучения // Юридические науки. Теория и практика мировой науки. – 2023. – № 7. – С. 47-50.
4. Равен Д. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация / Д. Равен. – М.: Когито – Центр. – 2002. – 394 с.
5. Серяева И. Ю. Формирование правовой компетентности студентов университета: дис. канд. пед. наук: 13.00.08. – Оренбург. – 2005. – 193 с. 6.
6. Царева И. А. Правовая компетентность – как основа развития будущих педагогов // Символ науки. – № 06. – 2017